

.....

ALISHER NAVOIY IJODIDA QALANDARIYLIK TA'LIMOTINING TARTIB VA QOIDALARI

Fazliddin Zamonov

Alfraganus universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: maqolada qalandariylik tariqatining shakllanishi, mazmun-mohiyati va tasavvuf adabiyotidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, qalandar obrazining mumtoz adabiyotdagi badiiy talqini, uning ramziy-ma'naviy xususiyatlari hamda Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab va Mohlaroyim Nodira ijodida qalandarlik maslagining ifodalanishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qalandariylik, tasavvuf, qalandar obrazi, mumtoz adabiyot, ishq, irfon, ruhiy erkinlik, faqru fanolik, tasavvuf falsafasi.

Hech kimga sir emaski, barcha tariqat shayxlari ilgari surayotgan ta'limotining asosini Qur'oni karim va sunnati saniyadan oladilar. Bunda zaif yoki marjuh (kuchsiz) deb qaralgan hadislariga ham rioya qilishni sunnat deb hisoblanib, ayni paytda ta'limotning ajralmas bir qismi deb amal qilingan va muridlarga ham shu yo'sinda sulkda sayr qilishlikni qat'iyan vird (vazifa) qiladilar. Albatta, bu tasavvuf mashoyixlarining naqadar omonatdor ekanligini dalolat qiladi. Ammo, tasavvuf adabiy muhitida ham shunday cho'kishlar har zamonda ko'zga tashlanib turdiki, tariqatda Qur'on va hadisga yod bo'lgan botil bid'at va xurofotlar uni zaiflashishiga sabab bo'ldi. Qalandariylik, malomatiya firqasi, murjiya va soxta salaflar aynan shunday Qur'on va hadisdan ajralib chiqqan botil ta'limotlardan edi. Bu xususida quyida muxtasar ma'lumot berib o'tamiz. Qalandariya (qalandariylik, qalandarlik) tariqati XI-XII asrlardan e'tiboran shakllana boshlagan. Ilmiy manbalar bu tariqatning asoschisi Jamoliddin Soviy (vaf. 1232) ekanligini ta'kidlaydi. Qalandariya o'ziga xos urf-odatga ega bo'lgan tariqat bo'lib, ko'p olimlar uni malomatiylikdan ajralib chiqqanligini e'tirof etishgan. Qalandariylikning paydo bo'lishi va kelib chiqishi haqida turli-tuman fikrlar yo'q emas. Qalandarlik – tasavvufga aloqasi bo'lmagan, tashkillashgan bir jamoadir,

degan olimlar ham bor. Qalandarlik tarixiga nazar solsak, dastlabki davrlarda uyushgan va ma'lum qonun-qoidalar asosida qurilgani, a'zolarining maxsus liboslar kiyib yurgani ma'lum bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda qalandarlar orasida diyonatlilari ham giyohvandlari ham bo'lgan. Ularning ko'pi mujarrad, ya'ni bo'ydoq yurgan holda haqqa yetishamiz deya tasarruf qilganlar. Qalandarlar aynan mana shu uylanmasliklari va tilanchilik qilishlari uchun ba'zi mutasavviflar tomonidan tanqid ostiga olingan va ularning tanqidi ayni ilmiy asosga tayangan edi. Chunki, Islom dinida uylanmaslik ham, tilanchilik orqasidan kun ko'rish ham gunoh sanalgan. Tasavvuf fuqaholari bunga hujjat tarzida payg'mabarimiz Muhammad alayhissalotu vassalomni "Kim nikohdan yuz o'g'irsa, bizdan emas" degan hadislarini keltirishgan. Davrlar o'tishi bilan esa ularning qonun-qoidalarida, yashash tarzida, liboslarida va qalandarxonalardagi tartiblarida mana shu kabi botil tushunchalar jadallik bilan yoyila boshlagan.

Qadimgi lug'at va ilmiy manbalarda qaraydigan bo'lsak, qalandar atamasining bir necha xil lug'aviy ma'nolarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Jumladan: "eshik tez ochilib ketmasligi uchun orqasidan tirab qo'yiladigan tarashlanmagan (yo'nilmagan) yog'och"; yoki bo'lmasam "diniy g'azallar o'qib, ham dinni targ'ib qilib, ham darbadar sayr-suluk qiluvchi darvesh"; majoziy ma'noda "dunyodan tamomila kechib, tarki dunyo qilgan kishi, zohid"; "o'zbek xalq kuylaridan birining nomi"; "erkaklarga qo'yiladigan nom".

Qalandarbachcha – qalandarning shogirdi. Qalandarxona – qalandarlar yig'iladigan va tunaydigan joy kabi ma'nolarni ifoda qilar ekan. Sayyid Ja'far Sajjodiy degan Eron olimining fikriga ko'ra: "Qalandarlikdan maqsad, ikki dunyodan o'zini yiroq tutish va ikki olam uyidan chetga, uzlatga ketish. Qalandar biror mansab, maqomga ega bo'lmagan, dunyoning ortiqcha g'am-tashvishlaridan forig' bo'lgan kishidir. U jamiyatga ichdan emas, tashqaridan ta'sir ko'rsatadi, joriy urf-odatlarni buzadi. Shu sababdan ayrim manbalarda ular "so'fiyoni xorij", ya'ni tasavvufdan, jamiyatdan tashqarida bo'lgan so'fiylar, deb nomlangan. So'fiy, malomatiy va qalandar orasidagi qisqacha farq shunday: so'fiyning qalbi xalq bilan emas, doim Haq bilan bog'liq bo'ladi; Malomatiy qilgan ibodatini xalqdan yashiradi, xalqning ta'nayu malomatidan cho'chimaydi, hazrat Muhammad alayhissalomni malomatiylarning sardori biladi; qalandar esa xalq urf-odatlarini oshkora buzadi. Faqat majburiy farz

amallarini bajarib, ortiqcha toat-ibodatga mayl ko'rsatmaydi. Qalandar va qallosdni tajrid va tark ahli, deydilar”.

Ko'p fuqarolarning ta'kidlashicha qaladariylarning adashgan joyi ilmiy asosga ega bo'lmagan amallarni “mana shu tasavvuf” deb davo qilganliklari bo'lgan. Naqshbandiya, Yassaviya, Kubroviya, Abdulla Qodiriya tariqatlari shayxlari esa bu holatni yaxshi tahlil qilishib, bor g'ayratini ishga solishgan. Bosh maqsadlari musulmonlarning dinini bu kabi xurofotlardan himoya qilish bo'lgan. Qalandariylik, – deydi tojik olimi Qurbon Vose', – malomatiy ta'limi asosida o'sib, rindlik, javonmardlik va hurufiylikka bir qadar hamohangligi (monandligi, uyg'unligi) bo'lgan. Bu hamohanglikni hammadan oldin rasmiy islom va tasavvufga bo'lgan munosabatda ko'rish mumkin.

Mumtoz adabiyotda obraz sifatida kelgan qalandarlar esa bu boshqa gap. Ba'zi tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, mumtoz adabiyotimizda qalandar lirik qahramon sifatida bir necha ma'naviy qiyofalarga ega bo'ladi:

Birinchisi – oshiq qalandarlar. Bular chinakam Haq oshiqlari. Botinni obod kilish uchun zohirning xarob bo'lishiga parvo qilmaydigan, shafqat va muruvvat sohiblari.

Ikkinchisi – majzub qalandarlar. Bular qissa, manoqib, tazkira va ayrim she'riy asarlarda ta'rifu tavsif etilgan valiysifat zotlar.

Uchinchisi – ujb va riyodan poklana olmagan, adab talablaridan chekingan, tilanchilik bilan kun ko'rishni odatga aylantirgan qalandarlar. Abdurauf Fitratning yozishicha: “Qalandarlik musulmon tasavvufining sho'basidir. Bu maslak bizning o'lkamizda so'ng kunlargacha davom etdi”. Shunga diqqat qilaylikki, o'zbek xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotda tasvirlangan qalandarlar ko'p jihatdan ibratli zotlardir. Masalan, “Alpomish”, “Shirin bilan Shakar”, “Rustamxon”, “Orzigul”, “Malikayi ayyor” kabi dostonlardan o'rin egallagan qalandarlar yaxshilik va ezgulikka sodiq, karomat sohibi sifatida xalqning xohish va istaklarini, ideal orzu-umidlarini yuzaga chiqaruvchi qahramonlar sifatida namoyon bo'ladi. Yozma adabiyotda oshiq qalandar yoki qalandar oshiqlarning maqomlari yanada yuksak. Shu bois qalandarlarning tashqi ko'rinishini xarakterlaydigan “kuloh”, “aso”, “janda”, “kamar” kabilar ham ichki ma'noga ega poetik timsollarga aylangandir. Navoiyga qadar yashab o'tgan turkiy adabiyot vakillari ijodida qalandariylik ta'siri keng miqyosda bo'lmasa-

da, mavjud. Hofiz Xorazmiy, Xo‘jandiy, Yusuf Amiriy Sayyid Ahmad, Sayyid Qosimiy, Haydar Xorazmiy, Lutfiy, Gadoiy, Atoyi singari shoirlar asarlarida qalandarona ruh va ohanglar bilan sug‘orilgan baytlar talaygina. Ular qalandarlik tariqati haqiqatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri targ‘ib qilmasalar-da, ruh hurligi, faqru fanolik, analhaqlik, ishq iztiroblarining zavqu hayajonli manzaralarini qalandarona usulda tasvirlab berganlar. Hofiz Xorazmiy g‘azallaridan birida yozadi:

Hofizo, rindu qalandarvashu qallosh o‘lg‘il,

Chun bu atvorda yo‘q mansabsanji islom.

Alisher Navoiy esa qalandarlik haqiqati va timsollariga keng ahamiyat bergan. Ulug‘ shoir qalandarlik maslagi talablarini naqadar teran mushohada etgan bo‘lsa, uning odobu shartlariga ham alohida e‘tibor bilan qaragan. Navoiyning “Badoe’ ul-vasat” devonidan joy olgan “Qirqib erdi qoshin ul bodaparast xudroy” satri bilan boshlangan g‘azali boshdan-oxir qalandarlik istilohi va tushunchalari asosida yozilgan. Tasavvuf ta‘limoti, qalandarlik odoblarini yaxshi bilmagan kishining ushbu g‘azaldagi nozik ma’no va ishoralarni ilg‘ab olishi maholdir. Shoirning ishq ta‘rifida qalandarlikdan ham bahs yuritishi bejiz emas:

Ishq aro poku qalandarlik kerak,

Shu‘la bahrida samandarlik kerak.

Qalandarona ishq oshiqlikning yirik namoyandalaridan biri – Boborahim Mashrab. Uning g‘azallarida qalandarona ruh yetakchilik qiladi. Shoir bir muxammasida: “Kulohu jandani kiygil, qalandarlikni hu qilgin”, deb yozadi. Mashrab ham naqshbandiya ruhidagi ijodkorlardan biri hisoblanishi barchamizga ma’lum. Uning “qalandar bo‘l” radifli maxsus g‘azali ushbu bayt bilan boshlanadi:

Murodingga yetay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l,

Sitam ahlin yutay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.

Mazkur g‘azalda “og‘izdan dur sochmoq”, “sharobi ishq ichmoq”, “yomonlardan qochmoq”, “fasod ahlin quvmoq”, “jahonni sayr etmoq”, “razolatni kuydurmoq”, “haqiqatni ochmoq”, “hammani kuldurmoq” uchun qalandar bo‘lmoqqa da’vat qilinadi. Zero, shoir Haqni talab qilish yo‘lini qalandarlikda ko‘radi:

Nigorim vaslini izlab talabda bir qalandarman,

Kechib dunyoi foniyydin talabda bir qalandarman.

Manbalardan ma'lumki, Mashrab tug'ma valiy, orif va yurt kezgan qalandar shoir bo'lgan. Is'hoq Bog'istoniyning "Tazkirayi qalandaron" asarida Mashrabning shogirdi Pirmat Setoriy va qirq qalandar bilan qilgan sayohatlari tasvirlanadi. Shoirning qalandarligi – oddiy tilanchilik, darbadarlik emas. Balki dunyo sevgisidan kechib, tajrid ahlidan bo'lish, "Bir Xudodan o'zgasini g'alat bilib", faqat Haqni sevish, visol umidida ikki dunyoni "pushti po urish", chinakam ruh erkinligiga erishishdan iborat edi. Mashrabning qalandarona ruhdagi she'rlari ishq va jununning yoniq ehtirolari bilan sug'orilgan. Shoir Ibrohim Adham va Mansuri Halloj timsoliga ko'p murojaat qiladi. Bu ikki Haq oshig'ining hurligi, ishqdagi kamolot va imkoniyatlaridan bahs yuritadi, mohiyatan insonni o'zligini anglashga, anglatishga undaydi. Uning isyonkor va shakkoklikka o'xshab ketadigan she'rlarida insonning "mukarram"ligi va Ollohning unga in'om etgan sharofati, ma'shuqi azal tomonidan oshiqning ham sevilishi, oshiq va ma'shuqlikning asl mohiyati ko'rsatib beriladi. Shoir chin oshiqlarga xos hamma ham tushunavermaydigan tavhid, "visol", "analhaqlik", "faqr fanolik" kabi asl haqiqatlardan gapiradi. Mashrabning she'riy salohiyatini, Xoliq va maxluqotga bo'lgan munosabatini, axloqiy-ma'rifiy qarashlarini ochib berishda qalandarlik maslagining o'ziga xos o'rni bor. Masalaning diqqatga molik yana bir jihati shundaki, qalandarlik maslagi faqat shoirlarimizni emas, balki shoirlarimizni ham ilhomlantirgan. Masalan, Mohlaroyim Nodira "qalandar" radifli g'azalida:

Mehri Xudo – rafiqi, Haq yodi – oshnosi,

Dunyo muhabbatidin begonadur qalandar,

deb yozadi. Shoir "dunyodan begonalar", "Haq yodi bilan yashash"

tuyg'usini forsha g'azallarga ham singdirdi:

Kisvati ishq dar baram, toji murod bar saram,

Gardishi charx sog'aram, rindi qalandar omadam.

Ya'ni: Egnimda – ishq libosi, boshimda – murod toji, qadahim – charx gardishi, rind, qalandar bo'lib keldim kabi baytlaridan Nasimiy, Rumi, Mashrab g'azallarining o'tli nafasi ufurib turadi. Shoir Haq va haqiqat ko'yidagi oshiqona tuyg'ularini qalandarlik maslagi orqali ro'yobga chiqarishga intiladi. Turkiy devonining "Debocha"sida qayd etilganidek, uning she'rlari "shavq g'alabasi va junun tug'yonda aytilgan, ba'zisi behudlik va ba'zisi behushlik ifrotida yozilg'on". Shuning uchun ham

Nodira gʻazallari ishq iztiroblari, qalb kechinmalari, ilohiy tuygʻularga boy. U gʻazallarida irfoniylar sirlarni ochishga urinadi. Shoiraning falsafiy xulosalaridan maʼrifatli oʻzbek ayoliga xos boʻlgan komillikka intilish, ziyoga tashnalikni his qilamiz. Nodira ijodining muhim jihati sanaladi. Qalandarlik gʻoyasini Huvaydo, Sufiy, Qalandar, Xarobotiy, Qoriy, Majzubi Namangoniy, Azim Xoja Eshon (Azimiy) va boshqa bir qator shoirlar davom ettirdilar. Bu mutasavvufning barchalari Movarounnahr oʻlkalaridan yetishib chiqqani shu davrlarda tasavvuf maʼrifatining markazi shu oʻlka boʻlganligidan dalolat beradi.

Tasavvuf falsafasi va axloqi mumtoz adabiyotimizga uzoq davrlardan beri taʼsir oʻtkazib kelgan, xalq ruhi va maʼnaviyatidan chuqur joy olgan. Shu bois har bir tariqat va uning mumtoz adabiyotimizga koʻrsatgan taʼsir doirasini aniqlash va baholash adabiyotning bugungi va kelgusi rivojida alohida oʻrin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. –Toshkent, 2009.
2. Komilov.N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-kitob. –Toshkent: Yozuvchi, 1996.
3. Rafiddinov S. Alisher Navoiy va naqshbandiylik. –Toshkent, 2022. – B 106.
4. Valixojayev B. Buyuk maʼnaviy murshid. –Toshkent: Fan, 2004 –B.69.
5. Inomjonova, I. D., & Husanova, U. (2025, May). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TILNING PAYDO BOʻLISHIGA OID QARASHLAR. In Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 162-164).
6. Musaev, I. X. (2025, December). ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODINING ESTETIK VA FALSAFIY TALQINI SAIDBEK HASANOV TADQIQOTLARIDA. In Conferences (Vol. 1, No. 8, pp. 68-70).
7. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz sheʼriyatda Bobur gʻazallarining poetik xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.
8. Abdullayeva, O. O. Q., & Abdullayeva, M. O. Q. (2021). QALBGA YAQIN SATRLAR. *Scientific progress*, 2(3), 138-142.
9. Хыжаев, М. И. (2020). Bashkir turkish studies. epra International Journal of Research & Development Development Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online, 5(8).